

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O'YINLARNING ROLI

Komilova Sayyora Sayfitdinovna

Farg'ona viloyati Beshariq tumanidagi

18-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada bugungi kunda maktabning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni tarbiyalash hamda jamiyatda o'z o'rnini topishga ko'maklashish va unga yetarli darajada foyda beradigan bilimlar bilan qurollantirish bo'yicha metodik tavsiya berilgan.

Kalit so'zlar: interfaol, didaktika, o'yin, pedagogika, texnologiya, ta'lif, tarbiya, jarayon, dars, uslub.

THE ROLE OF GAMES IN INCREASING EDUCATIONAL EFFECTIVENESS

ABSTRACT

The article provides methodological advice on one of the main tasks of the school today is to educate students and help them find their place in society and equip them with knowledge that will be useful to them.

Key words: interactive, didactics, play, pedagogy, technology, education, upbringing, process, lesson, style.

"Ta'lif to'g'risida" gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da belgilangan asosiy vazifalardan biri ta'lif sohasi amaliyotiga pedagogik texnologiya amaliyotiga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishdir.

O‘quvchilarning darsni o‘zlashtirish darajasi o‘qituvchi tomonidan qiziqarli tashkil qilinishiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Sinfdan-sinfga yuqorilab borgan sari darsliklar, mashg‘ulotlar juda qiziqarli ammo, ancha murakkab tuyuladi. Aynan mana shu murakkablikni bartaraf etish uchun o‘qituvchidan anchayin mahorat, ayricha salohiyat talab etiladi. Bu xususiyatlarni o‘ziga jo etgan o‘qituvchining darslarini o‘quvchilar intiqlik bilan kutadilar.

Ta’lim va o‘qitish mazmunining nazariy masalalarini, uning shakli va uslublarini pedagogikaning bir qismi bo‘lgan didaktika o‘rganadi.

Didaktikaga asoslangan holda biz o‘quvchilarga bilim beramiz. Ta’lim jarayonida turli usullardan foydalanamiz. Dars turini to‘g‘ri va muvaffaqiyatli o‘tish uslubini ham to‘g‘ri tanlasak yaxshi natija beradi. Har bir darsni ko‘rgazmali va texnika vositalari bilan o‘tkazish joizdir. Shundagina dars bilimga boy o‘tadi. O‘qituvchi izlanuvchan bo‘lishi, darslarni rang-barang usulda o‘tishi kerak. Dars qiziqarli o‘tishi uchun faqat ko‘rgazmali qurollardan foydalanib qolmay, o‘yin elementlaridan, dars davomida harakatli daqiqalardan foydalanish lozim. O‘yin elementlaridan nafaqat darsda balki darsdan tashqari ishlarda konferensiya darslarida foydalanish mumkin. Bu albatta boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan. Ular bu yoshda o‘yinqaroq, tez zerikuvchan, diqqati tarqoq bo‘ladi. O‘yin orqali ularni darsga, mavzuga jalb qila olishimiz mumkin. O‘yin–bu bolalar uchun o‘qish, mehnat qilish va tarbiya vositasidir. Biroq, darsning asosiy qismini o‘yin darsiga aylantirib qo‘ymaslik lozim.

Yan Amos Komenskiy Grammatik o‘yinlardan sistemali foydalanishning ahamiyati xususida gapirib, bunday deb yozgan edi: “Bola sog‘lom bo‘lishi uchun u doimiy harakatda bo‘lishi zarur, shundagina o‘yin qiziqarli o‘tadi. O‘yinga rahbarlik qilish va bolalarning hatti-harakatlarini doimo kuzatib turish kerak. Chunki bolalar o‘yin jarayonida har tomonlama tarbiyalanadilar.

O‘yin elementlari bolalarni bilim saviyasini, nutqini, o‘qishini o‘siradi. Masalan: “Harflarni esda saqlash”, “Pochtachi”, “Quruvchilar”, “Bu qanday so‘z”, “Estafeta”, “Harflarni qo‘sish bilan yangi so‘z hosil qiling”, “Eng yaxshi

hisobchi”, “Zinacha”, “Xato qilma”, “Kim tezroq”, “Sonning tarkibini toping”, “Yarimta harf”, “To‘g‘rini tanlab yoz”, “Harflar adashib qoldi”, “Mehmon kutamiz”, “Eng chaqqon”, “Shaharlarga sayohat”, “Qarsak” kabi o‘yinlar o‘quvchilarni topqirlikka, sezgirlikka, hozirjavoblikka o‘rgatadi.

Pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llab borish mакtabimizda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda muhim asosiy ro‘lni o‘ynamoqda. Bu ishlarni amalga oshirishda asosiy e’tiborni quyidagilarga qaratish lozim deb hisoblayman.

1. Kuchli ma’muriy rahbarlik.
2. Ichki muhitning yaxshiligi.
3. Tayanch pedagogik yangiliklarga yo‘nalganlik.
4. O‘qituvchilarning o‘quvchilardan yuqori natijalarni kutishi uchun asoslar mavjudligi.
- 5.O‘quvchilar o‘zlashtirish tizimini yaxshilashdan iborat.

Zero, zamonaviy o‘qituvchi kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ‘ibotchisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Barkamol avlod orzusi. I. A. Karimov.
2. Pedagogik texnologiya asoslari. J. G‘. Yo‘ldoshev, S. A. Usmonov. Toshkent-2004 y
3. Sinf rahbar jurnali. 2014 y. 11-soni.
4. Uzluksiz ta’lim jurnali. 2017 y. 6-soni.
5. O‘qituvchi ijodkorligi davr talabi. Bozorov E, Musurmonova O. O‘qituvchi. 1991
6. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. Toshkent. 2015.